

**Qiziriq tumanida ham xalqning  
farovonligi mahalla va qishloqlardan  
boshsanishi sabab bugungi kunda  
tumanning chekka mahallalarida aholi  
uchun munosib shart-sharoitlarni  
yaratish, obodonlashtirish ishlari  
amalga oshirilmoqda**



Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan hayotga izchil tatbiq etilayotgan ijtimoiy holati og'ir bo'lgan mahalla fuqarolar yig'iniga qarashli yangi ta'mirlangan ko'chalar, chekka-chekka hududlardagi aholi uchun barpo etilayotgan zamonaviy uy-joylar, ta'lim muassasalari, dam olish maskanlari qator xizmat ko'rsatish shahobchalarining yangicha qiyofasida o'zining yorqin ifodasini topmoqda.



Shu kabi Qiziriq tumanida ham xalqning farovonligi mahalla va qishloqlardan boshlanishi sabab bugungi kunda tumanning chekka mahallalarida aholi uchun munosib shart-sharoitlarni



yaratish, obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.



Yil boshidan bu kabi ishlar reja asosida amalga oshirilib, har bir ko'chalarga tosh yotqizish ishlari davom ettirilmoqda.

Ma'lumot o'rnidagi, tumanda mahallalardagi har bir ko'chaga tosh yotqizish ishlari tasdiqlangan reja asosida amalga oshiriladi.